

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Shermuhammadov, B.Qurbonova</b>	
Hamkorlikdagi faoliyat treningini o'tkazish usullari.....	9
<b>T.Egamberdieva, N.Gafurova</b>	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda gender tengligi masalalari .....	13
<b>N.O'rinova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyalari .....	17
<b>I.Siddiqov</b>	
Aralash ta'lim – bo'lajak tarixchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida .....	21
<b>M.Barakayev, X.O'rinov</b>	
Matematika o'qituvchisi tayyorlash metodik sistemasining nazariy jihatlari.....	26
<b>X.Umarov</b>	
O'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirish tuzilmasi va komponentlari .....	31
<b>N.Xodjibolayeva</b>	
Talabalarda ekologik kompetentlikni shakllantirishda Abdurauf Fitratning ijtimoiy-ekologik qarashlarining ahamiyati .....	39
<b>S.Uraimov</b>	
Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlarining pedagogik tahlili .....	44
<b>D.Malikova</b>	
Ta'lim makonida madaniy muhitning tarixiy omillari.....	48
<b>A.G'ofurov</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish tizimi.....	51
<b>I.Sharofutdinov</b>	
Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish .....	59
<b>J.Qurbonov</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual madaniyatni rivojlantirishning integrativ ta'lim texnologiyalari.....	65
<b>M.G'ofurova</b>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida tadqiqot metodlarini qo'llashning samaralari .....	69
<b>G.Maxsudova</b>	
O'quvchilarda ekosavodxonlikni shakllantirishning rivojlantirishda milliy ma'naviy qadriyatlarining ahamiyati .....	74
<b>V.G'aniyeva</b>	
O'yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi .....	78
<b>Sh.Karimova</b>	
Talabalarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ishlarni tashkil etishning lokal-modulli texnologiyasi .....	82
<b>F.Raximova</b>	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bo'lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish tizimini takomillashtirish muammolari .....	85
<b>D.Rafikova, Z.Ibroximova</b>	
Ta'limni modernizatsiyalash jarayonida smart texnologiyalardan foydalanishning istiqbollari va muammolari.....	88
<b>U.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish pedagogik-psixologik asoslari .....	92

**SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM ORQALI BO'LAJAK TARBİYACHILAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI****ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ ПУТЕМ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОУЧЕНИЯ****PROBLEMS OF IMPROVING THE SYSTEM OF DEVELOPING THE CREATIVE ACTIVITY OF FUTURE EDUCATORS THROUGH PERSONALLY-ORIENTED LEARNING****Raximova Feruzaxon Muxammadjonov<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Raximova Feruzaxon Muxammadjonov

– Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bo'lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish tizimini takomillashtirish yo'nalishidagi muammolarga bag'ishlangan bo'lib, MTT bo'lajak tarbiyachilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida samaradorlikka erishishi uchun mazkur faoliyatining mazmuni va mohiyati hamda pedagogik jarayonlar subyektlarining ijodiy, aqliy va intellektual salohiyatini namoyon etishiga zaruriy shart-sharoitlar yaratishi zarurligini anglatishga yo'naltirilgan.

**Аннотация**

Данная статья посвящена проблемам совершенствования системы формирования и развития творческой активности будущих воспитателей посредством лично-ориентированного образования, а в целях достижения эффективности в направлении развития и совершенствования творческой деятельности педагогов - воспитателей ДОО содержание и сущность, а также необходимость создания современных условий для проявления творческого, мыслительного и интеллектуального потенциала субъектов педагогического процесса.

**Abstract**

This article is devoted to problems in the direction of improving the system of shaping and developing the creative activity of future teachers through person-oriented education, and in order to achieve efficiency in the direction of developing and improving the creative activity of future teachers of MTT content and essence, as well as the need to create necessary conditions for the manifestation of the creative, mental and intellectual potential of the subjects of pedagogical processes.

**Kalit so'zlar:** innovatsion ta'lim, pedagogik texnologiya, mutaxassis, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, metod.

**Ключевые слова:** инновационное образование, педагогическая технология, специалист, лично-ориентированное образование, метод.

**Key words:** innovative education, pedagogical technology, specialist, person-oriented education, method.

**KIRISH**

Jahon amaliyotida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bo'lajak tarbiyachilarda ijodiy faoliyatni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, demokratik jamiyatda bo'lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish o'z - o'zidan yuzaga kelmaydi, mazkur jarayon muntazam tarzda maqsadli ravishda olib borilgan pedagogik faoliyat natijasida shakllantiriladi va tarkib toptiriladi. Shuningdek, bo'lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan ularning bilim, ko'nikma va malakalari, mavjud ijodkorlik faoliyati kompetensiyalari o'rtasidagi nomutanosiblik jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlariga mos kelmasligiga sabab bo'lishi bilan tavsiflanadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Adabiyotlarda "Ijodkorlik" tushunchasining ma'nosi va mazmuni jihatdan turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan, "ijodkorlik", "kreativlik", "ijodiy faoliyat", "ijodiy tafakkur", "ijodiy yondashuv", "ijodiy sifat va fazilatlar" kabilarni aytilish mumkin. Amerikalik psixolog E. P. Torrensning nuqtai nazaricha "Ijodkorlik - insonning nostandart, ijodiy qobiliyatiga ega bo'lish qobiliyati, ijodiy fikrlashi, shaxsning muammolarga nisbatan sezgirligi va ularning yo'llarini topish yechimlariga egaligi, moslashuvchan fikrlash qobiliyati va yangi g'oyalarni ilgari surishi; mavjud bilimlarning noqulayligi uchun sezuvchanlik" degan ma'nolarni anglatadi degan qarashlarni ilgari suradi.

D.B.Bogoyavlinskaya, F.Uilyams, E.P.Ilyin, A.M.Matyushkin, A.V.Petrovskiy, A.V.Xutorskaya kabi mualliflar ijodkorlik shaxsning qobiliyati (xususiyati, sifati) ekanligini alohida ta'kidlab o'tadilar. Shuningdek, ijodkorlik ostida ma'lum bir aqliy va shaxsiy xususiyatlar, yangi qaror qabul qilish qobiliyati va nostandart fikrlash kabilar mujassam ekanligini ilgari suradilar.

Bo'lajak tarbiyachilarni o'qitish jarayoni shaxs ijodiy faoliyatini faolligi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langan. Oliy maktabda zamonaviy o'qitishning eng muhim vazifalaridan biri bu bo'lajak tarbiyachilarning kasbi bo'yicha xabardorligini aniqlashtirish uchun qulay shart-sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ijodiy faoliyat uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rishni, eruditsiyani, kasbiy qobiliyatlarni talab qiluvchi ijodiy jarayon hisoblanadi. Ijodiy faoliyat – insonning uzoq faoliyati asosi, barcha moddiy va ma'naviy boyliklar manbai ekanligini anglatadi.

Shaxsning muvaffaqiyatli ijodiy faoliyati uning muhim va zarur axborotni tanlab olishi hisoblanadi. Shuningdek, ijodiy fikrlar va farazlarni generatsiyalashga undovchi asosiy omillar ehtiyojlar hisoblanadi. Bu ehtiyojning sifati bilimlar va malakalar bilan uzviy qurollanganlik va farazlarning mazmuni bilan belgilanganligida ifodalanadi. Ong bilan nazorat qilinmaydigan intuitsiya doimo ehtiyojga bog'liq sanaladi. Bilishni ifodalagan ehtiyojsiz odamning mahsuldor ijodiy faoliyat yuritishga mo'ljal olishi juda qiyin kechadi. Bu tegishli ehtiyojni qanoatlantirgandagina uning intuitsiyasi g'oyalar va farazlarni generatsiyalashi amalga oshiriladi.

Shaxsning ijodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga oid ilg'or qarashlar J.Gilford, A.Maslau va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida ham o'z aksini topgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning muammoli ta'lim, modul ta'limi dasturiy ta'lim, rivojlantiruvchi ta'lim, o'yin texnologiyalari, interfaol ta'lim, hamkorlik ta'limi, tabaqalashtirilgan ta'lim, individual ta'lim, masofaviy ta'lim, mustaqil ta'lim va innovatsion ta'lim kabi turlari mavjud bo'lib ulardan ta'lim tarbiya jarayonida keng foydalanish ta'lim sifatini ta'minlash va bo'lajak tarbiyachilarni ijodkorlik faoliyatini tarkib toptirish imkonini beradi. Avtoritar texnologiyada, tarbiyachi yagona subyekt sifatida namoyon bo'ladi, tarbiyalanuvchilar esa faqatgina «obyekt» vazifasini bajaradi. Bunda tarbiyalanuvchilarning tashabbusi va mustaqilligi yo'qoladi, o'qitish majburiy tarzda amalga oshiriladi. An'anaviy o'qitish asosan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, shaxsning rivojlanishini ko'zda tutmaydi.

An'anaviy o'qitish quyidagi xususiyatlarga ega: zo'rvonlik pedagogikasi, o'qitishning tushuntiruv-ko'rgazmali usuli, ommaviy o'qitish kabilar bilan ifodalanadi.

An'anaviy o'qitishda avtoritarlik quyidagi shaklda namoyon bo'ladi: tarbiyalanuvchi bu hali to'la shakllanmagan shaxs, u faqat bajarishi zarur, tarbiyachi esa - bu sardor hakam, yagona tashabbuskor shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda esa tarbiyalanuvchi shaxsi pedagogik jarayon markaziga qo'yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qulay shart-sharoit va imkoniyat yaratiladi

Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo'ladi:

- pedagogik jarayonda shaxs obyekt emas, subyekt hisoblanadi;
- har bir tarbiyalanuvchi qobiliyat egasi, ko'pchiligi esa iste'dod egasi hisoblanadi;
- yuqori estetik qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar)

shaxsning ustuvor xislatlari sifatida qaraladi.

Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bo'lajak tarbiyachi va pedagog huquqlarini tenglashtirish;
- bo'lajak tarbiyachini erkin tanlab olish huquqi;
- xatoga yo'l qo'yimaslik huquqi;
- o'z nuqtai nazariga ega bo'lish huquqi;
- pedagog va bo'lajak tarbiyachilarning o'zaro munosabati zayli;
- uning iqtidori va qobiliyatini taqiqlamaslik;
- boshqarish emas, birgalikda boshqarish;
- majburlash emas, ishontirish;
- buyurish emas, tashkil etish;
- chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish.

Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va g'ayri insoniy hisoblanadigan zo'rvonlik pedagogikasidan voz kechishdir. Muammo bu tamoyilni mutlaqlashtirishda emas, balki uning oqilona mezonlarini aniqlashda o'z

## PEDAGOGIKA

ifodasini topadi.

Umuman olganda tarbiya jarayonida zo'raonlik mumkin emas, ammo jazolash insonni kamsitadi, ezadi, rivojlanishini susaytiradi, unda odamovi, ichingdan top, yalqov, mas'uliyatsizlik, tajanglik, asabiylik kabi salbiy xususiyatlarini shakllantiradi.

Erkin o'qitish quyidagilar bilan belgilanadi:

- ishonchga asoslangan erkin talabchanlik;
- o'quv materialiga qiziqish uyg'otish, bilishga va faol ijodiy fikrlashga rag'batlantirish;
- bo'lajak tarbiyachilarning mustaqilligi va tashabbusiga tayanish;
- jamoa orqali bilvosita usullar bilan talablarni amalga oshirishni ta'minlash.

Bo'lajak tarbiyachi shaxsini shakllantirishda ijodiy yondashuvning zamonaviy yangi talqini quyidagilardan iborat bo'ladi;

- bo'lajak tarbiyachi shaxsini ijodiy izlanishga innovatsion yo'naltirish;
- shaxsning ijodiy xislatlarini izlash va rivojlantirish;
- shaxs rivojlanishining individual dasturlarini tuzish.

Shaxsiy yondashishda birinchi navbatda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

– har bir bo'lajak tarbiyachi qiyofasida noyob shaxsni ko'rish, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish.

- bo'lajak tarbiyachida barcha tarbiyalanuvchilarni iste'dodli degan ishonchni olib kirish;
- shaxsga muvofaqiyatlarni ma'qullovchi, qo'llab-quvvatlovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratish, ya'ni ijodiy faoliyatidan qoniqish va xursandchilik olib kelishi;
- bevosita majburlashga yo'l qo'ymaslik, qoloqlikka va boshqa kamchiliklarga urg'u bermaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik;
- pedagogik jarayonda, bo'lajak tarbiyachilarga o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va ko'maklashish kabilar.

### XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkin-ki, bo'lajak tarbiyachilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat mazmunini quyidagilarda o'z aksini topgan.

– o'qituvchining bo'lajak tarbiyachi shaxsiyatini qadriyat sifatida qabul qilishga yo'naltirilgan faoliyat mazmuni;

– ijodkorlikni maqsadga muvofiq rivojlantirish, ya'ni ijod jarayondagi ijodiy elementlarni loyihalash, rejalashtirish va tanlashga alohida e'tibor qaratilishi;

– mazkur faoliyat jarayonida ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan tajriba shakllanadi.

Bo'lajak tarbiyachilarni ijodkorligini rivojlantirish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni:

- ijodkorlikni shakllantirish va rivojlantirish usullarini o'rganish va tahlil qilish;
- ijodiy faoliyatni shakllantirish va rivojlanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish
- o'quv jarayonida ijodiy faoliyatni shakllantirish va rivojlantirish uchun motivatsiyani rivojlantirish
- ijodiy faoliyatni shakllantirish va rivojlantirishni nazorat qilish.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori.

2. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan "Davlat talablari". 2018-yil 3-iyul, ro'yxat raqami 3032.

3. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.

4. Raximova, Feruzaxon Muxammadjonovna. "Problems with the social attitude of the individual." Innovative development in the global science 2.9 (2023): 112-121.

5. Mukhammadjonovna, Rakhimova Feruzaxon. "Development of pedagogical activities with preschool children in need of inclusive education." Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 impact factor: 7.603 11.12 (2022): 423-427.

6. Raximova, Feruzaxon Muxammadjonovna, and Zoya mixaylovna burdina. "Issues of organization and management of inclusive education and upbringing in Uzbekistan." International academic research journal impact factor 7.4 1.6 (2022): 112-118.

7. Mukhammadjonovna, Rakhimova Feruzaxon. "Problems of development of creative abilities in preschoolers." International journal of early childhood special education 14.7 (2022).

8. Raximova, F. M. "Processes of formation of intellectual abilities of preschool children by means of innovative technologies." Экономика и социум 1-1 (104) (2023): 54-57.